Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · “Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24320357

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI INNOVASIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

QOSIMOVA MOHIGUL ABDUHAMIDOVNA
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tadqiqotchisi

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari faoliyatining innovasion rivojlanishi ko‘p omilli, ko‘p darajali va dinamik xarakterga ega bo‘lib, uni an’anaviy chiziqli modellar asosida ifodalash metodologik jihatdan kuchsiz hisoblanadi. Chunki, yuqorida ta’kidlanganidek, raqamli muhitda innovasiyalar moliyaviy resurslar, raqamli infratuzilma, ma’lumotlar muhiti va mijozlar bilan o‘zaro munosabatlarning bir vaqtda transformasiyalanishi orqali shakllanadi. Shu sababli, mazkur tadqiqot doirasida innovasion rivojlanish jarayonlarini formallashtirish va funksional bog‘liqliklarni aniqlash maqsadida kodlashtirilgan konseptual yondashuv modeli ishlab chiqildi.

Ushbu modelni shakllantirish zarurati uchta metodologik muammodan kelib chiqqan:

birinchi muammo innovasion rivojlanish omillarining tarqoq talqin qilinishi bilan bog‘liq bo‘lib, mavjud yondashuvlarda resurslar, texnologiyalar va mijozlar munosabatlari ko‘p hollarda mustaqil omil sifatida qaraladi;

ikkinchi muammo innovasion jarayonlarning qayta aloqa xususiyati yetarlicha hisobga olinmasligi bilan izohlanadi;


uchinchi muammo innovasiyalarning iqtisodiy natijalari va ularni ta’minlovchi mexanizmlar o‘rtasidagi funksional bog‘liqlikning formallashtirilmaganligi bilan xarakterlanadi.

Taklif etilayotgan konseptual model yuqoridagi cheklovlarni bartaraf etish uchun tashqi muhit drayverlari, integrasiyalashgan iqtisodiy tizim yadrosi, funksional integrasiya mexanizmlari, qayta aloqa konturi va qo‘llab-quvvatlovchi shart-sharoitlarni yagona tuzilmaga integratsiya qilib, uni vizual-sxema ko‘rinishida quyidagicha ifodalash mumkin (1-rasm).

Published: 05.06.2026

Cite this article: Qosimova Mohigul Abduhamidovna (2026). Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari innovasiyalarini rivojlantirishning konseptual asoslari. Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320357

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.



1.2.2-rasm. Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari innovasiyalarini integrasiyalashgan iqtisodiy tizim sifatida rivojlantirishning konseptual modeli[259]

Mazkur raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari innovasiyalarini integrasiyalashgan iqtisodiy tizim sifatida rivojlantirishning konseptual modelida foydalanilgan kodlar (shartli belgilash) tasnifi quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval

Kodlash (shartli belgilash) tasnifi[260]

Kod	To‘liq nomi	Mazmuni	Konseptual vazifasi
KYA-0	Konseptual yondashuv algoritmini boshlash	Modelni ishga tushirish nuqtasi	Tadqiqot obektini integratsiya-lashgan tizim sifatida belgilaydi
KIR-1	Resurslar kirimi	Moliyaviy resurslar, inson kapitali, texnologik resurslar, axborot resurslari va intellektual resurslar	Innovatsion tizim yadrosini moddiy, moliyaviy, texnologik va kadrlar salohiyati bilan ta’minlaydi
KIR-	Axborot va	Ichki ma’lumotlar bazasi,	Qaror qabul qilish,

[259] Muallif ishlanmasi.
[260] Muallif tomonidan kiritilgan.

2	ma’lumotlar kirimi	mijozlar ma’lumotlari, bozor ma’lumotlari, texnologik va makroiqtisodiy ma’lumotlar	tahlil, prognozlash va innovatsion jarayonlarni moslashtirish uchun axborot asosini shakllantiradi
TMD	Tashqi muhit drayverlari	Raqamli iqtisodiyot tendensiyalari, texnologik innovatsiyalar, institutsional muhit, raqobat va mijozlar xulq-atvori	Innovatsion rivojlanishga ta’sir etuvchi tashqi impulslarni aniqlaydi
ITQ	Integratsiyalashgan tizim yadrosi	Bank innovatsiyalarini tashkil etuvchi asosiy funksional bloklar majmuasi	Innovatsion rivojlanishning markaziy iqtisodiy arxitekturasini shakllantiradi
MRT	Moliyaviy resurslar tizimi	Kapital, investitsiyalar, innovatsion fondlar, resurslarni taqsimlash	Innovatsion faoliyatning moliyaviy asosini ta’minlaydi
RIT	Raqamli infratuzilma tizimi	Texnologik arxitektura, API, platformalar, kiberxavfsizlik, ma’lumotlar muhiti	Innovatsiyalarni amalga oshirish uchun raqamli asos yaratadi
IMX	Innovatsion mahsulotlar va xizmatlar tizimi	Yangi raqamli xizmatlar, platformaviy mahsulotlar, fintex yechimlar	Resurs va texnologiyalarni qiymat taklifiga aylantiradi
MAL	Mijozlar bilan aloqalar tizimi	Omnikanal aloqa, personallashtirish, mijoz tajribasi, sodiqlik	Innovasion mahsulotlarni mijoz qiymatiga aylantiradi
FIM	Funksional integrasiya mexanizmi	Ma’lumotlar oqimi, resurslar oqimi, qiymat oqimi, texnologik integrasiya va tashkiliy muvofiqlashuv	Tizim bloklari o‘rtasidagi bog‘liqlik va hamohanglikni ta’minlaydi
IQY	Iqtisodiy qiymat yaratish	Samaradorlik, daromadlilik, raqobatbardoshlik va resurslardan oqilona foydalanish	Innovasion faoliyatning iqtisodiy natijasini ifodalaydi
INK	Innovasion	Yangi mahsulotlar ulushi,	Bankning innovasion

	salohiyat	innovasion faollik, texnologik yetuklik	o‘sish qobiliyatini baholaydi
MQ	Mijozlar qiymati	Mijoz konversiyasi, sodiqlik, hayotiy qiymat, xizmatdan qoniqish	Innovasiyalarning bozor va mijozlar nuqtai nazaridan samarasini ko‘rsatadi
BR	Barqaror rivojlanish	Uzoq muddatli o‘sish, ijtimoiy ta’sir, raqobatbardoshlik barqarorligi	Innovasion faoliyatning strategik natijasini belgilaydi
QAM	Qayta aloqa mexanizmi	Ma’lumot yig‘ish, tahlil, qaror qabul qilish va moslashuv jarayonlari	Tizimni uzluksiz takomillashtirishga xizmat qiladi
MMB	Ma’lumotlarni monitoring qilish	KPI, real-time ma’lumotlar, bozor o‘zgarishlari	Innovasion natijalarni doimiy kuzatadi
TBS	Tahlil va baholash	Deskriptiv tahlil, prognoz, senariylar, risk va imkoniyatlar tahlili	Qaror qabul qilish uchun analitik asos yaratadi
QQL	Qaror qabul qilish	Strategik, taktik va operasion qarorlar	Innovasion siklni boshqaruv qarorlari bilan ta’minlaydi
MTK	Moslashuv va takomillashtirish	Jarayonlarni optimallashtirish, resurslarni qayta taqsimlash, strategiyani yangilash	Tizimni tashqi muhit o‘zgarishlariga moslashtiradi
KQO	Qo‘llab-quvvatlovchi omillar	Korporativ boshqaruv, innovasion madaniyat, kadrlar, standartlar, xavfsizlik, investision jozibadorlik	Algoritm barqaror ishlashi uchun institusional shart-sharoit yaratadi
RIB	Raqobatbardosh inno-vasion bank modeli	Innovasion, barqaror va mijozga yo‘naltirilgan bank modeli	Konseptual yondashuvning yakuniy natijasini ifodalaydi

Mazkur konseptual modelning funksional ishlash bosqichlari ketma-ketligi quyidagicha kechadi.

Dastlab, tashqi muhitdan boshlanib, bu bosqichda tashqi ta’sirlar innovasion transformasiya impulslarini shakllantiradi.

IQTISODIY STATISTIKA KAFEDRASI

KYA-0 → TMD → ITQ

Ushbu zanjir shuni anglatadiki, innovasion rivojlanish avtonom jarayon emas, u raqamli iqtisodiyot tendensiyalari, texnologik o‘zgarishlar, raqobat muhiti va mijozlar talablari ta’sirida shakllanadi.

Modelning markaziy qismi – integrasiyalashgan iqtisodiy tizim yadrosi hisoblanadi.

ITQ → MRT ↔ RIT ↔ IMX ↔ MAL

Bu yerda:

MRT – innovasion rivojlanishning resurs asosini;

RIT – raqamli muhit va texnologik platformalarni;

IMX – innovasion qiymat taklifini;

MAL – esa innovasiyalarning bozorga transformasiya mexanizmini ifodalaydi.

Ushbu bloklar ketma-ket emas, balki ikki tomonlama funksional bog‘liqlik asosida harakat qiladi. Bu innovasion rivojlanishning adaptiv xususiyatini ifodalaydi.

Keyingi bosqichda barcha elementlar funksional integrasiya mexanizmi orqali birlashtiriladi:

(MRT + RIT + IMX + MAL) → FIM

Funksional integrasiya mexanizmi ma’lumotlar oqimi, resurslar harakati, texnologik integrasiya va tashkiliy muvofiqlashuvni ta’minlaydi. Shu jihatdan FIM modelning koordinasion yadrosi vazifasini bajaradi.

Iqtisodiy natijalar bloki innovasiyalarning yakuniy samaradorligini baholashga xizmat qiladi:

FIM → IQY → INK → MQ → BR

Bu yerda innovasion faoliyat natijalari faqat daromad orqali emas, innovasion salohiyat, mijozlar qiymati va barqaror rivojlanish ko‘rsatkichlari orqali ham baholanadi.

Modelning adaptiv qismi qayta aloqa konturi hisoblanadi:

MMB → TBS → QQL → MTK → ITQ

Bu sikl innovasion tizimning o‘zgaruvchan muhitga moslashish qobiliyatini ta’minlaydi. Shu sababli, model o‘zini yangilab boruvchi tizim sifatida qurilgan.

Taklif etilayotgan konseptual model mavjud konsepsiyalarga asoslangan holda, ammo mualliflik yondashuvlari va uslubi orqali takomillashtirilgan variant sifatida qayta ishlab chiqilgan bo‘lib, mazkur takomillashtirish bir nechta tamoyilli o‘zgarishlar hisobiga amalga oshirildi:

birinchidan, innovasion rivojlanish jarayoni formallashtirilib, kodlashtirilgan algoritm shakliga keltirildi. Bu funksional bog‘liqliklarni aniq ko‘rsatish imkonini berdi;

ikkinchidan, tashqi muhit ta’siri innovasion jarayondan ajratilmadi, balki algoritmning kirish nuqtasi sifatida kiritildi. Bu raqamli iqtisodiyot sharoitidagi dinamik o‘zgarishlarni hisobga olish imkonini beradi;

uchinchidan, integrasiyalashgan iqtisodiy tizim yadrosi to‘rtta funksional tizimga dekompozisiya qilinib, ular o‘rtasidagi ikki tomonlama bog‘liqliklar nazariy jihatdan asoslandi;

to‘rtinchidan, funksional integrasiya mustaqil modul sifatida ajratilib, innovasion rivojlanishda ma’lumotlar, resurslar va qiymat oqimlarining roli kuchaytirildi;

beshinchidan, qayta aloqa konturining algoritmga kiritilishi innovasion jarayonlarning siklik va adaptiv xususiyatini ochib berdi;

oltinchidan, natijaviylik bloki faqat moliyaviy ko‘rsatkichlarga emas, innovasion va mijozlar qiymati mezonlariga ham bog‘landi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, raqamli iqtisodiyot sharoitida bank innovasiyalarini rivojlantirish jarayonlari chiziqli ketma-ketlikka emas, o‘zaro integrallashgan iqtisodiy konturlar tizimiga asoslanadi. Shu bois, kodlashtirilgan konseptual algoritm innovasion rivojlanishni modellashtirish, uning funksional bog‘liqliklarini formallashtirish va banklar innovasion siyosati uchun qaror qabul qilish bazasini shakllantirish imkonini beradi.

IQTISODIY STATISTIKA KAFEDRASI — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti